

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida UMUMIY HISOBOT

I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot.

2024-yilda aloqa kanallari orqali Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga **22 ta** (12 ta jismoniy shaxs murojaati, 10 ta HMQOning taqdimnomasi), Andijon viloyati **14 ta** (6 ta jismoniy shaxs murojaati, 8 ta HMQOning taqdimnomasi), Sirdaryo viloyati **23 ta** (11 ta jismoniy shaxs murojaati, 12 ta HMQOning taqdimnomasi va yuridik shaxs xati), Qashqadaryo viloyati **2 ta**, Namangan viloyati **10 ta**, Farg'ona viloyati **17 ta**, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi **32 ta jami 120 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Ushbu murojaatlarning **20 ta** Ishonch telefoni orqali, **4 ta** maxsus bot orqali, **96 ta** pochta orqali kelib tushgan.

Vazirlik tizimidagi qolgan tizim tashkilotlarga murojaatlar kelib tushmagan.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha sohalarni tartibga soluvchi va hisobot davrida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida tatbiq etilgan korrupsiyaga qarshi sohasiga taalluqli bo'lgan quyidagi normativ-huquqiy va ichki-idoraviy hujjatlar tasdiqlangan.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi xodimlarining Odob-axloq qoidalarini tasdiqlash bo'yicha 13-ICH-son buyruq 23.02.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Odob-axloq komissiyasi tarkibi 13-ICH-son buyruq 23.02.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi Nizom 23-ICH-son buyruq 23.02.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi tarkibi 47-ICH-son buyruq 1-ilovasi 10.04.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi to'g'risidagi Nizom 47- ICH-son buyruq 2-ilovasi 10.04.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati 91-ICH-son buyruq 1-ilovasi 26.05.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi Nizom 91-ICH-son buyruq 2-ilovasi 26.05.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom 91-ICH-son buyruq 3-ilovasi 26.05.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom 89- ICH-son buyruq 1-ilovasi 26.05.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 89-ICH-son buyruq 2-ilovasi 26.05.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma 89-ICH-son buyruq 3-ilovasi 26.05.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiyot 89-ICH-son buyruq 4-ilova 26.05.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtirok uchun rag'batlantirish to'g'risidagi tartib 89-ICH-son buyruq 5-ilova 26.05.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti 90-ICH-son buyruq ilovasi 26.05.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida 109-ICH-son buyruq 23.06.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida "Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibni belgilash to'g'risida" 121- ICH-son buyruq 20.07.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizom 121- ICH-son buyruq 20.07.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 121- ICH-son buyruq 20.07.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi 121- ICH-son buyruq 20.07.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 121- ICH-son buyruq 20.07.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligida markazlashgan davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonini tartibga solish to'g'risida 149-ICH-son buyruq 18.08.2023-y.

- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining markaziy apparati, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Obod va xavfsiz mahalla jamg'armasi, Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi

hisobidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo'yicha xarid komissiyasi tarkibi 149-ICH-son buyruq 18.08.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Jamoat ishlari jamg'armasi hisobidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo'yicha Xarid komissiyasi tarkibi 149-ICH-son buyruq 18.08.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi hisobidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo'yicha Xarid komissiyasi tarkibi 149-ICH-son buyruq 18.08.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi hisobidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo'yicha Xarid komissiyasi tarkibi 149-ICH-son buyruq 18.08.2023-y.

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligida davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo'yicha Yo'riqnoma 149-ICH-son buyruq 18.08.2023-y.

- Ichki mehnat tartibi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida 171-ICH-son buyruq 18.08.2023-y.

- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy bosh boshqarmalar, vazirlik huzuridagi agentlik hamda tasarrufiy tashkilot va muassasalarda xizmat tekshiruv va xizmat o'rganishi o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom 190-ICH-son buyruq 27.10.2023-y.

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi to'g'risidagi Nizom 53-son buyruq 05.04.2024-y.

- Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida Nizom 53-son buyruq 05.04.2024-y.

- Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'lim boshlig'ining lavozim yo'riqnomasi 53-son buyruq 05.04.2024-y.

- O'zbekiston Respublikasi 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-210-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024-yil 7-iyundagi 18/1-1873-son topshirig'i ijrosini ta'minlash to'g'risidagi 85-son buyruq 12.06.2024-y.

III. Xavf-xatarlarni baholash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini

takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qaroriga asosan davlat idorasi va tashkilotlarning har bir funksiyasi bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi va darajasi, ularni bartaraf etish bo'yicha choralarni o'z ichiga oluvchi korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini «E-Anticor.uz» elektron platformasida tuzish belgilangan.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-oktabrda "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi uchun axborot tizimlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va joriy etishni tartibga solish to'g'risida"gi 191-sonli buyrug'i bilan, O'zbekiston Respublikasi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida axborot tizimlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va joriy etish tartibi to'g'risida Nizom, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan axborot tizimlari va ularga mas'ul tuzilmalar ro'yxati, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizim tashkilotlari uchun axborot tizimlarini ishlab chiqish, takomillashtirish loyihalarini muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh tarkibi hamda Axborot tizimlarini yaratish va takomillashtirish jarayonlari sxemasi tasdiqlangan.

Mazkur buyruq bilan vazirlik tomonidan amaliyotga joriy etilgan axborot tizimlari va ularga mas'ul tuzilmalar rahbarlari mas'ul etib biriktirilgan.

Hozirda, vazirlik tizimida mavjud 50 ta davlat xizmatidan 26 tasi yoki 53 foizi raqamli platformaga o'tkazildi. (yil boshida 9 ta, 27 % bo'lgan).

Misol uchun, Kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlarga subsidiya, Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga subsidiya, Ipoteka kreditiga Davlat subsidiyasi, Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinganlarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga subsidiya, Kasanachilik ishchilarini kasbiy o'qitish xarajatlarini qoplash uchun subsidiyalar.

Bu xizmatlardan 2024-yil boshidan 1,8 million aholi foydalangan (2023-yilda 1,6 million bo'lgan) 2023-yilning mos davriga nisbatan 125 foizga oshgan.

Raqamlashtirish natijasida 10 dan ortiq turdagi ma'lumot va hujjatlar aholidan talab qilinishi bekor qilingan.

Misol uchun: Ishsiz deb e'tirof etish va ishsizlik nafaqasini tayinlash, ish staji, yashash joyi to'g'risida ma'lumotlar mobil ilova yoki internet orqali olish imkoniyati yaratilgan. Bugungi kunga qadar 15 ta axborot tizimlar (Yagona milliy mehnat tizimi va uning mobil ilovasi, "Mening ishim" mobil ilovasi, Kasbiy standartlari portali, Milliy vakansiyalar bazasi, Bandlik xizmati, Davlat mehnat inspeksiyasi tekshiruvlar monitoringgi, Frilans, Onlayn inspektor, Raqamli ekotizim, "xorijdaish" kabi tizimlar) amaliyotga joriy qilingan.

Vazirlik tizimida ijro nazorati bo'yicha 2023-yilda elektron dastur (edo.ijro.uz) ishga tushirilgan.

Yagona milliy mehnat tizimida ish beruvchi va xodim o'rtasida tuziladigan mehnat shartnomalarini ro'yxatga olish, xodimning mehnat daftarchasi to'liq raqamlashtirilgan va respublikada mavjud 826 mingta ish beruvchi vazirlik, tashkilot va korxonalar tomonidan ularda ishlovchi 5,8 mln. nafar xodim bilan tuzilgan 6,7 mln. mehnat shartnomalari to'g'risidagi ma'lumotlar elektron bazasi shakllantirilgan.

Davlat personallashtirish markazi, Soliq qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy attestatsiya komissiyalarining ma‘lumotlar bazasi, Shaffof qurilish axborot tizimi, Yagona ijtimoiy himoya reestri, Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan integratsiya qilingan.

2023-yilning sentyabr oyidan boshlab, ish beruvchi va xodim o‘rtasida tuzilgan va bekor qilingan mehnat shartnomalari bo‘yicha SMS xabarnoma xizmati ishga tushirilgan.

Fuqarolarga Pensiyanı rasmiylashtirishda (ID-karta orqali) hujjat talab etmaydigan tizim yaratilgan (hozirgi kunga qadar 310 ming fuqaro murojaat qilgan).

Kvotalangan ish o‘rinlarini zahiralash tizimi joriy etilgan va shu orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligi to‘g‘risidagi statistik ma‘lumotlarni olish imkoniyati yaratilgan.

Respublika hududi va uning chegaralaridan tashqarisida mehnat qilayotgan fuqarolarimiz uchun ham “Xorijdaish” dasturiy majmuasi joriy etilgan.

Bunda, xorijiy davlatlarda ish qidiruvchi sifatida onlayn ro‘yxatda turish, chet tillari va kasb-hunarga o‘qish uchun ariza topshirish, hayot va sog‘liq sug‘urtasini onlayn rasmiylashtirish va xorijdagi bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida tezkor xabarlar yuborish imkoniyatlari yaratilgan.

Ishsiz va xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, Ozarbayjon Respublikasi tajribasi asosida har bir hududlardagi “Ishga marxamat” monomarkazlarida “Ishga yo‘naltirish bo‘limi” tashkil etilgan.

2023-yilning sentyabr oyidan boshlab vazirlikning Yagona nuqta tamoyili asosida ishlab chiqilgan “Raqamli ekotizim” tajriba rejimida ishga tushirilgan.

Ushbu ekotizim vazirlikning axborot tizimlari va fuqarolarga ko‘rsatilayotgan elektron xizmatlarni yagona nuqtaga birlashtiradi, quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- elektron mehnat daftarchalarni shakllantirish;
- bandlikka ko‘maklashish markazlari xizmatlari;
- davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish mehnatni muhofaza qilish;
- mehnat migratsiyasi jarayonini tartibga solish va migrantlar huquqlarini himoya qilish.

Buning avzalligi:

Xodim uchun yagona nuqtadan asosida vazirlikning barcha axborot tizimlaridan foydalanish va monitoring qilish hisoblansa;

Fuqaro uchun sohaga oid bo‘lgan barcha elektron xizmatlarni, jumladan hayotiy statuslarini belgilovchi hujjatlarlarni hamda kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha “Individual dastur”ni qamrab oluvchi universal shaxsiy kabinetning mavjudligi hisoblanadi.

Kabinetda mehnat daftarchadan ko‘chirma, ish joyidan ma‘lumotnoma, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasida ko‘chirma, hisoblangan oylik ish haqlari, mos keladigan vakansiyalar, onlayn mehnat yarmarkalari, rezyume,

diplom va sertifikatlar, kasbga o'qitish bo'yicha videokurslar, migratsiya bo'yicha barcha xarakatlar kabi ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Mehnat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, ishchilar va ish beruvchilar huquqlarining buzilishining oldini olish, xususan, ish beruvchiga yoki xodimga tashkilotning mehnat qonunchiligi talablariga muvofiqligini mustaqil ravishda tekshirish imkoniyatini beruvchi **“Mustaqil baholash”** portali ishga tushirilgan.

Hududlarda ishsiz fuqarolar hisobini yuritish, ularning elektron bazasini yaratish orqali manzilli ro'yxatlarini shakllantirish hamda bandlik holatini **“Bandlik xizmati”** axborot tizimida tahlil qilish imkoniyatlari joriy etilmoqda.

Bunda, vazirlikning axborot tizimlari - Yagona milliy mehnat tizimi, **“Onlayn mahalla”**, **“xorijdaish.uz”** platformalarida ro'yxatga olingan qariyb 22 mln. nafar fuqarolarning ma'lumotlari bir tizimga birlashtirilgan.

axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash choralari kuchaytiriladi.

Vazirlikning barcha axborot tizimlari 2025 yil fevral oyiga qadar to'liq Kiberxavfsizlik ekspertizalaridan o'tkaziladi.

Ma'lumot uchun: 12 axborot tizimlarni barcha bosqichdagi ekspertizalardan o'tkazish uchun iyun oyida 25 ta shartnomalar tuzildi va Kiberxavfsizlik bilan bevosita hamkorlikda ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi **“Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi PQ-240-son Qaror talablaridan kelib chiqib, 2024-yil 21-may kuni Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining faoliyatidagi 134 ta funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi (*keyingi o'rinlarda-Xarita deb yuritiladi*) tuzildi hamda belgilangan tartibda tasdiqlandi.

Har bir funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi **«past»**, **«o'rta»** va **«yuqori»** o'lchovlarida **«E-Anticor.uz»** elektron platformasida baholandi.

Baholash natijasiga ko'ra, Vazirlikning 134 ta funksiyasidan 5 tasida (4%) **“yuqori”**, 9 tasida (7%) **“o'rta”**, qolgan 120 ta (89%) funksiyada **“past”** xavf-xatar mavjudligi aniqlandi.

Ushbu korrupsiyaviy Xaritada kiritilgan funksiyalarning korrupsiyaviy xavf darajasidan kelib chiqqan holda, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi tasdiqlandi.

Shuningdek, Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi **“yuqori”** va 9 ta **“o'rta”** bo'lgan funksiyalar minimallashtirish (pasaytirish) maqsadida Vazirlik tarkibiy tuzilmalar tomonidan raqamlashtirish, profilaktik suhbat o'tkazish, inson omilini kamaytirish ishlari olib borildi.

Jumladan, Xaritaning **1-bandida** **“Asosiy xizmatchilar lavozimlari va ishchi kasblarining klassifikatorini, tarmoqlararo xarakterga ega bo'lgan alohida lavozimlar va kasblar bo'yicha kasbiy-malakaviy tasniflarni ishlab chiqish”**, **2-bandida** **“Xizmatchilar lavozimlari va ishchi kasblarining tasdiqlangan Klassifikatorida ko'rsatilgan ishchi kasblari va xizmatchilar lavozimlari nomlarining ilgari normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarda ishlatilgan kasblar**

va lavozimlarga aynanligini va mutanosibligini belgilash”, **3-bandida** “Iqtisodiyotning alohida tarmoqlari va sektorlari uchun xodimlar sonining va mehnatga haq to‘lash fondining minimal normativlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash”, **4-bandida** “Davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari uchun lavozimlar kiritish va boshqaruv xodimlari, xizmat ko‘rsatuvchi va texnik xodimlar sonining normativlarini belgilash shartlarini ishlab chiqishda qatnashish”, **5-bandida** “Manfaatdor vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari bilan birgalikda ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarning eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha takliflar tayyorlash”. **6-bandida** “Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashda ishtirok etish”, **8-bandida** “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga va boshqa tashkilotlarga mehnatni normalash hamda Zamonaviy mehnat standartlarini joriy etish, mehnatga haq to‘lashni tashkil etish, ishlar, kasblar va lavozimlarning tarif-malaka ma‘lumotnomalarida aks ettirilmagan lavozimlar va ishlarni tarif setkasining tegishli razryadlariga kiritish masalalarida amaliy va uslubiy yordam berish” funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi “o‘rta” belgilangan.

Mazkur funksiyalar belgilangan normativ hujjatlar asosida ishlanishi va kollegial taklif (xulosa) vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda e-xat.uz, EDO.ijro.uz raqamli dasurlar orqali amalga oshirilishi, jismoniy va yuridik shaxslar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati yo‘qligi xavf-xatarga moyillik darajasini minimallashtiradi.

Xaritaning **47-bandida** “Malakani baholash Milliy tizimi faoliyatini tashkil etish” funksiyasida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi **yuqori** baholangan.

Vazirlikning Kasbga tayyorlash va milliy malaka tizimini joriy qilish boshqarmasi Kasbga tayyorlash va milliy malaka tizimini joriy qilish boshqarmasi malakani baholash milliy tizimi milliy **malaka.mehnat.uz sayti** orqali 27 ta malakani baholash markazlari inson omilisiz akkreditatsiyadan o‘tkazilgan.

Xaritaning **48-bandida** “kasb malakalari va bilimlari bo‘yicha Kengash tashkil etish” funksiyasining korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi **o‘rta** baholangan.

Ushbu funksiyada kasb malakalari va bilimlari bo‘yicha Respublika kengashining onlayn yig‘ilishlar qisman tashkil etilishi, tarmoq va hududiy kengashlar bilan topshiriqlar bo‘yicha yozishmalar amalga oshirilishi, kengash yig‘ilish qarorlari kollegial tarzda qabul qilinishi sababli xavf-xatar darajasi **minimallashi** ta‘minlandi.

Xaritaning **52-bandida** “mehnatga layoqatli aholi, ayniqsa band bo‘lmagan yoshlar kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar olishi uchun shart-sharoit yaratish” funksiyasida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi **yuqori** baholangan. Ushbu funksiya bo‘yicha mehnatga layoqatli aholi, ishsizlarga bandlik xizmatlarini ko‘rsatish abkm.mehnat.uz dasturi orqali amalga yuritilishi ta‘minlandi.

Xaritaning **53-bandida** “kasbga o‘qitish markazlarida ishsiz fuqarolarni va band bo‘lmagan aholini kasbga o‘qitadi hamda malakani baholash markazlarida

ularning malakasini baholash” korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi **yuqori** baholangan.

Bunda aholini kasbga o‘qitish uchun yo‘llanma berish **abkm.mehnat.uz** dasturi orqali hamda o‘qishni bitirganlarga sertifikat berish **mehnat.uz** dasturi orqali amalga oshirilishi ta‘minlandi. Ushbu dasturlar integratsiya qilinishi ta‘minlandi.

Xaritaning **61-bandida** O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining Kasb-hunar ta‘limi markazi bilan birgalikda mehnat bozorida talab bo‘lgan ega kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha ishsiz fuqarolar va band bo‘lmagan aholini kasbga o‘qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish qisqa muddatli kurslari o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi yuqori baholangan. Kasbga o‘qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish qisqa muddatli kurslari o‘quv dasturlarini ishlab chiqish Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi metod boshqarmasi va tasdiqlash Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilishi ta‘minlandi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Vazirlik va quyi tizim xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar to‘ldirildi.

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom-91-ICH-son buyruq 3-ilovasi bilan 26.05.2023-yilda tasdiqlangan.

Deklaratsiyalarni to‘ldirish natijasida Vazirlik tizimida jami **6 ta** haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi (*Qashqadaryo viloyatida 3 ta, Andijon viloyatida 3 ta*) holati aniqlandi. Aniqlangan holat natijasida **1 ta** hayfsan intizomiy chorasi (*Andijon*), **3 ta** holatda egallab turgan lavozimidan ozod etish chorasi (*Qashqadaryo*) hamda **2 ta** holatda (*Andijon*) sud qaroriga asosan jarima jazo chorasi qo‘llanildi.

Shuningdek, jami **16 ta** potensial qarindoshlik a‘lomatlar mavjud (*Vazirlik 6 ta, Qashqadaryo 3 ta, Ishga marhamat monomarkazi 5 ta, Toshkent shahar va Ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish markazida 2 ta*) holatlari aniqlanib, ular bilan profilaktik suhbat o‘tkazildi hamda **3 ta** holatda (*Qashqadaryo*) egallab turgan lavozimidan ozod etish chorasi qo‘llanildi.

Aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari nazoratga olindi.

Kontragentlarni tekshirish

2024-yilda Vazirlik Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan jami **61 ta** kontragentlar tekshirildi hamda belgilangan xulosalar taqdim etildi. Ushbu kontragentlar tekshirilganda manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanmadi.

Shuningdek Vazirlik tizimidagi tashkilotlar tomonidan **1 373 ta** shartnomalar tuzilgan bo‘lib, mazkur shartnomalar belgilangan tartibda o‘rganilgan.

Aniqlangan xato-kamchiliklarga huquqiy baho berish bo‘yicha hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 89-ICH-son buyruq 2-ilovasi 26.05.2023-yilda tasdiqlangan bo'lib, boshqaruv xodimlari ishga qabul qilish jarayonida nomzodlarni tekshirish yo'lga qo'yilgan.

Hisobot davrida Vazirlik markaziy apparati tashkiliy tuzilmasida vakant lavozimlarga **50 ta** tanlovda tanlovning suhbat bosqichiga o'tgan **372 nafar** nomzodlardan **50 ta** boshqaruv xodimlari belgilangan tartibda ishga qabul qilingan va ularga **50 ta** ijobiy xulosa berilgan.

Shuningdek, Vazirlik markaziy apparati tashkiliy tuzilmasida **64 ta** boshqaruv xodimlari belgilangan tartibda rotatsiya qilingan.

Hududiy va tasarrufdagi tashkilotlarga hisobot davrida **667 nafar** xodim belgilangan tartibda ishga qabul qilingan hamda **244 nafar** xodim rotatsiya qilingan.

Barcha nomzodlar belgilangan tartibda tanlov va suhbat natijasiga ko'ra ishga qabul qilingan.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

2023-yil 23-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini mustahkamlash shora-tadbirlari to'g'risidagi 109-sonli buyrug'iga asosan vazirlik markaziy apparatining 20 nafar rahbar-xodimlari 2024-yil 27-29-mart kunlari malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda 18 soatlik o'quv kurslarida o'qitildi.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-dekabrda 20-451-son bayoni ijrosi yuzasidan tasdiqlangan o'quv-reja grafikka asosan Vazirlikning 14 ta tizim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatuvchi xodimlarni o'qitish hisobga olingan bo'lib, tizim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatuvchi **4 299 nafar xodimlar** korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyati yuzasidan o'qitilgan bo'lib, shundan **2 640 nafar xodimlarga** sertifikatlar berildi.

O'quv jarayoni tizimli ravishda davom ettirilib kelinmoqda.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

Kelib tushgan **120 ta** murojaatlar belgilangan tartibda qabul qilinib o'rganib chiqilgan. O'rganish natijasiga ko'ra, **105 ta** murojaat bo'yicha tushuntirish berilgan, **4 ta** murojaat bo'yicha salbiy holat o'z tasdig'ini topgan, **11 ta** murojaat tegishliligi yuzasidan boshqa tashkilotlarga yuborilgan.

Aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar yuzasidan **25 ta** xizmat tekshiruvi o'tkazilgan, **22 ta** holat yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga huquqiy baho berish uchun hujjatlar (xulosalar va tegishli materiallar) yuborilgan.

Korrupsiyaviy holatlar bo'yicha **4 ta murojaat** (*1 ta Vazirlikka, 2 ta Tashqi migratsiya agentligiga, 1 ta Sirdaryo viloyati boshqarmasiga kelib tushgan*)ni o'rganish yakuni bo'yicha huquq tartibot idoralari tomonidan **3 ta jinoyat ishi** qo'zg'atilgan.

Murojaatni o'rganish natijasida mas'ul xodimlarga **77 ta “Hayfsan”** intizomiy jazosi, **21 ta** mehnat shartnomasini bekor qilish chorasi qo'llanilgan.

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan murojaatlarni qabul qilish bo'yicha telegramm bot faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilning 26-iyun kuni Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri rahbarligida huquqni muhofaza qiluvchi organlarining vakillari ishtirokida Vazirlik tizimida korrupsiyaviy salbiy holatlar va ularni bartaraf etish yuzasidan kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi. Ushbu yig'ilish natijasida Vazirlik tizimida har bir xodimning “Halollik vaksinasi” bilan emlanishi yuzasidan 2024-2025-yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi hamda ijrosi nazoratga olindi.

VII. Monitoring va nazorat

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan jami **14 ta** tizim tashkilotlarda monitoring va nazorat tadbirlari o'tkazildi.

O'tkazilgan monitoring natijasida korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab, shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlanmaganligi uchun **14 ta tizim tashkilotlarining** faoliyati **qoniqarsiz** deb topilgan hamda mazkur tizim tashkilotlariga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha yozma ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, hududiy va tasarrufiy tashkilotlarning komplaens ichki nazorat xodimlari tomonidan **50 ta** (*Andijon 4 ta, Qashqadaryo 2 ta, Jizzax 1 ta, Sirdaryo 13 ta, Toshkent shahridagi ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish markazi 2 ta, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi 28 ta*) monitoring va nazorat tadbirlari o'tkazilgan.

O'tkazilgan monitoring va nazorat tadbirlari natijasida kamchilikarga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga 9 ta intizomiy jazosi tayinlandi, 1 ta holatda xodimning tashabbusi bilan egallab turgan lavozimidan ozod etildi, 3 ta holatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

2024-yilning 3-8-may kunlari O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan korrupsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi yuzasidan anonim so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnomada 12 ta banddan iborat savollar tuzilib, jamoatchilikning vazirlikning korxonalari faoliyatiga munosabati, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan savollar joriy yilning 3-6-may kunlari (<https://forms.gle/bttw9zzYQGd65jxS6>) telegram kanaliga joylashtirildi.

O'tkazilgan anonim so'rovnomada **768** nafar xodimlar qatnashdi.

Vazirlikning komplaens-nazorat tizimi ish faoliyati va natijadorligini yaxshi baholaysizmi savolga 717 ta (93 foiz) “HA” deb javob bergan.

Ish faoliyatingiz davomida oxirgi bir yilda manfaatlar to'qnashuviga duch keldingizmi savolga 667 tasi (86,8 foiz) "YO'Q" - deb javob bergan.

Siz ishlab kelayotgan tashkilot faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi, mahalliychilik, urug' aymoqchilik yoki tanish-bilishchilik holatlari mavjudmi savolga 663 ta (86,3 foiz) "YO'Q" - deb javob bergan.

2023-2024-yillardagi ish faoliyatingiz davomida manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini to'ldirganmisiz savolga 583 ta (75,9 foiz) "HA" deb javob bergan.

Siz ishlab kelayotgan tashkilotda korrupsiyaviy holatlar mavjudligi to'g'risida savolga 680 tasi (88,5 foiz) "YO'Q" - deb javob bergan.

Ish faoliyatingiz davomida shaxsan o'zingiz korrupsiya holatlariga duch kelganmisiz to'g'risidagi savolga 680 ta (88,5 foiz) "YO'Q" - deb javob bergan.

Siz ishlab turgan tashkilotingizda korrupsiya holatlariga guvohi bo'lsangiz, ushbu haqida zudlik bilan xabar bergan bo'larmidingiz to'g'risidagi savolga 698 ta (90,9 foiz) "HA" deb javob bergan.

Tashkilotingizdagi korrupsiya holatlari haqida xabar bersangiz ta'qibga olinmasligingiz, har qanday bosimga uchramasligingiz yoki siz xabar berganligingiz bo'yicha ma'lumotlar oshkor bo'lmasligiga ishonasizmi to'g'risidagi savolga 622 ta (81 foiz) "HA" deb javob bergan.

Tashkilotingizda Siz guvoh bo'lgan korrupsiya holatlari bo'yicha kimga murojaat qilishingiz kerakligini bilasizmi to'g'risida test savoliga 712 ta (92,7 foiz) to'g'ri javob bergan.

O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan yoki boshqacha shaklda "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati" va "Odob-axloq kodeksi" bilan tanishganmisiz to'g'risida savolga 724 ta 94,3 foiz "HA" deb javob bergan.

Sizning jamoangizda odob-axloq qoidalariga rioya qilinishini ijobiy baholay olasizmi to'g'risida savolga 731 ta 95,2 foiz "HA" deb javob bergan.

Yuqoridagi savolnomalarga berilgan javoblardan Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi siyosat yo'lga qo'yilganligi va xodimlarda bu borada habardorlik darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

Shuningdek, **joriy yil dekabr oyida** O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bilim va ko'nikmalari hamda tashkilotda korrupsiya omili borligi yuzasidan onlayn so'rovnoma (<https://forms.gle/QNN4W9t5RJE5EUm87>) telegram kanaliga joylashtirildi. Mazkur so'rovda 800 nafarga yaqin xodimlar ishtirok etdi.

Xodimlar o'rtasida Korrupsiyaga qarshi bo'lim vazifasini bilish darajasini so'ralganda eng ko'p ta'kidlangan vazifalar bu tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish, tashkilotda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish, tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish hamda Komplaens bo'limining shaffoflik va nazoratni ta'minlashi haqida fikrlar e'tirof etilgan.

Xodimlardan mehnat faoliyati davomida ishlayotgan tashkilotingizda korrupsiya yoki manfaatlar to‘qnashuvi holatiga guvoh bo‘lganmisiz degan javobga, aksariyat xodimlar korrupsiyaga guvoh bo‘lmaganini ko‘rsatgan.

Oxirgi 2 (ikki) yil davomida xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini ko‘zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan sovg‘a olganmisiz degan savolga aksariyat respondentlar sovg‘a olmaganini ta’kidlagan (215 ta “Yo‘q” javob), ba’zi hollarda "Hech qachon" kabi qat’iy javoblar qayd etilgan.

Ish so‘rab kelgan fuqarolar ishga joylashtirish uchun pora taklif qilganmisiz savolga aksariyat respondentlar moddiy va no moddiy pora taklif bermaganligi, lekin 5% so‘rovda qatnashgan xodimlarga taklif qilishganligini ta’kidlagan.

Xodimlar o‘rtasida vazirlikning qaysi yo‘nalishida korrupsiya ko‘proqligini so‘ralganda, ko‘p respondentlar 57 ta bilmasligini, lekin ishga qabul qilish va inspeksiya yo‘nalishlari korrupsiyaviy xavflarning yuqori darajada ekanligini bildirgan

Manfaatlar to‘qnashuvi savolga hamma respondentlar “shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyatlar deya javob bergan.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari

Vazirlik va tizim tashkilotlari ichki nazorat tuzilmalari tomonidan jami **70 ta** (*Vazirlik 22 ta, Andijon viloyati 5 ta, Toshkent viloyati 1 ta, Jizzax viloyati 1 ta, Sirdaryo viloyati 18 ta, Samarqand viloyati 2 ta, Qashqadaryo viloyati 1 ta, Surxondaryo viloyati 2 ta, Navoiy viloyati 10 ta, Namangan viloyati 4 ta, Toshkent viloyati 1 ta, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi 3 ta*) **xizmat tekshiruvi** o‘tkazildi.

O‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijasida **43 ta** “hayfsan” va intizomiy jazosi, **9 ta** mehnat shartnomasini bekor qilish, **42 ta** holatda huquqiy baho berish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlariga xizmat tekshiruvi xulosasi yuborildi.

Vazirlik tizimida korrupsiyaviy holatlar va ularni keltirib chiqaruvchi omillar bo‘yicha Vazir raisligida 2024-yil 26-iyun kuni, 22-iyul kuni hamda 14-noyabr kuni umumiy yug‘ilishda muhokama qilindi.

Jumladan, 2024-yil 26-iyundagi muhokama yig‘ilishidan so‘ng, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida “Halollik vaksinasi” bilan emlanishi yuzasidan 2024-2025-yillar amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

IX. Huquqiy targ‘ibot tadbirlari

2024-yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida Ommaviy axborot vositalari orqali jami 1184 ta targ‘ibot o‘tkazilgan bo‘lib, 73 ta televideniye, 33 ta

radio, 29 ta gazeta va jumallarda, 1049 ta VEB sayt va boshqa elektron axborot vositalarida chiqishlar qilingan.

Shuningdek 58 ming nafar tizim xodimlari va fuqarolar ishtirokida 3869 ta huquqiy targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 44 tadan ziyod animatsion materiallar, qollanmalar, slaydlar hamda ijtimoiy roliklardan foydalanildi.

X. Xulosa va korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar

Vazirlik tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan tarkibiy bo'linmalar mas'ul xodimlarini har uch yilda boshqa tarkibiy bo'linmalarga majburiy tartibda rotatsiya qilish;

Xorijga ishlash maqsadida ketayotgan fuqarolar uchun barcha tanlov jarayonlarini ochiq va shaffof tarzda o'tkazish maqsadida, tanlovlarni tashkil etish bo'yicha yagona Reglamentni ishlab chiqish, bunda jarayonlarni Internet tarmog'i orqali onlayn translyatsiya uzatilishini nazarda tutish;

Tuman (shahar) KQBKMLar kadrlar qo'nimsizligiga barham berish, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish orqali ish samaradorligini oshirish;

Bandlik xizmati AT dasturiga daromad solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar reestrini, Xalq bankida fuqarolarning jamg'arib boriladigan byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi reestrini, fuqarolarning oilaviy xolatini tekshirish uchun FHDYo organlari reestri bilan hamda ichki ishlar organlarida proflaktik hisobda bor yo'qligini avtomatik aniqlash uchun yuqoridagi elektron tizimlar bilan integratsiya qilish;

Hokim yordamchilari fuqarolarga barcha yo'nalishlarda kasb-hunarga tavsiyanoma berishi uchun platformasi mavjud barcha kasb-hunarga o'qitish markazlari elektron bazasini integratsiya qilish;

Fuqarolarga davlat tomonidan berilgan nafaqa (*nogironlik, bola puli, ishsizlik va boshqalar*), subsidiya, moddiy yordam, imtiyozli kredit, imtiyoz asosida berilgan uy, yer davolanish uchun moddiy malag'lar va boshqa yordamlarni olgan fuqarolarni yagona elektron tizimini yaratish yoki mavjud reestrini takomillashtirish;

Bo'sh ish o'rinlari hisobotini topshirishda xususiy sektordagi ish beruvchilarga majburiy etib belgilash;

Manzilli targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, korrupsiyaga eng ko'p moyil bo'lgan funksiyalar va lavozimlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish hamda korrupsiyaga moyil bo'lgan lavozimdagi mas'ullarni korrupsiyaga qarshi madaniyatini shakllantirish;

Jamoat ishlariga jalb etilgan fuqarolarni ishga kelib ketishi hamda Kasbga o'qitishga jalb etilgan fuqarolar o'qishga kelib ketishini nazoratini Face ID texnologiyasi asosida tashkil etish hamda maxsus mobil ilova orqali nazoratni tashkil etish;

Jamoat ishlari, ishsizlik nafaqalari va stipendiya tayinlash bo'yicha elektron to'lov qaydnomasi shakllantirish va UzASBO tizimiga integratsiya qilish;

Bandlik bo'limlari tomonidan jamoat ishlarini tashkil qilish bo'yicha buyurtmalarni belgilangan muddatlardan o'tgandan keyin ham qabul qilish holatlarini bartaraf etish maqsadida, belgilangan muddatida taqdim etilmagan buyurtmalarni "Bandlik xizmati" axborot tizimida qabul qilinishini oldini olish, shuningdek o'tkazilayotgan to'lovlarni Xalq banki bilan integratsiya qilish orqali JShShIR bilan tekshirish imkoniyatini yaratish;

"Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuniga asoslanib ishsiz shaxslarni mehnat organlarida hisobdan chiqarish bo'yicha, Markaziy bank, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi, Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentliklaridan ma'lumotlarni to'siqsiz olish bo'yicha qonunning tegishli moddalariga o'zgartirish kiritish;

Vazirlik tizimida davlat maqsadli jamg'armalarining sarf-xarajatlarida aniqlanayotgan tizimli kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida "Bandlik xizmati" axborot tizimini Markaziy bank, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentliklarining axborot tizimlarining tegishli ma'lumotlar bazasi bilan to'liq integratsiyani yo'lga qo'yish;

Xususiy korxona va tashkilotlar tomonidan ishlovchi fuqarolarning mehnat shartnomalarini to'liq "YaMMT" IDAK dasturidan ro'yxatdan o'tkazilmayotganligi sababli, "Bandlik xizmat" axborot dasturida haqiqatda murojat qilgan fuqarolarning haqiqatda bandligi yoki band emasligi to'g'risida ma'lumotlar aks etmasdan qolmoqda. Shu sababli xususiy korxona va tashkilotlar tomonidan ishlovchi fuqarolarning mehnat shartnomalarini to'liq "YaMMT" IDAK dasturidan to'liq ro'yxatdan o'tkazilishini yo'lga qo'yish, "YaMMT" IDAK direksiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida ish beruvchilar tomonidan mehnat shartnomalarini, amaldagi mehnat shartnomalariga o'zgartirishlarni, ularning tugatilishini "YaMMT" IDAKda ro'yxatdan o'tkazilganligini, elektron mehnat daftarchalarini shakllantirilganligini tahlil qilib, tahliliy ma'lumotni vazirlikka oyma oy taqdim etish.

Izoh: Ma'lumotda Migratsiya agentligining 2024-yil 9-oylik ma'lumotlari kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-162-son Farmoniga asosan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati tugatilib, Vazirlar Mahkamasi huzurida Migratsiya agentligi tashkil etildi.